



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

PEDAGOGIK TAJRIBA - SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Abduraimov Sirojiddin Abdukarimovich

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutahassisligi 2-bosqich magistranti

Xudoyqulova (Abduraimova) Dilobar Abdukarim qizi

Jizzax Davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi" yo'nalishi 407-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishning o'ziga xos tomonlari, tajriba-sinov ishlarida inson predmeti, tajriba-sinov o'tkazishdagi o'ziga xos talablar va anketa so'rovlari. Tajriba-sinov maqsadi, qoidalari hamda natijalari haqidagi muammolar haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *Tajriba-sinov, umummilliy tafakkur, empirik, kuzatuv, taxliliy, metod, shaxs, Ilmiy tadqiqot konsepsiyasi, falsafiy kategoriya, metadalogik asos, matematik statistik tahlil, mantiqiy tahlil, obyektiv, subyektiv.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены особенности проведения педагогической экспериментальной работы, человек-субъект в экспериментальной работе, специфические требования и анкеты при проведении экспериментальной работы. Обсуждаются цель, правила и результаты эксперимента.*

Ключевые слова и фразы: *Эксперимент-тест, национальное мышление, эмпирический, наблюдение, аналитический, метод, человек, концепция научного исследования, философская категория, метадологическая основа, математико-статистический анализ, логический анализ, объективный, субъективный.*

Abstract: *In this article, the specific aspects of conducting Pedagogical experimental work, the human subject in experimental work, specific requirements and questionnaires in conducting experimental work. The purpose, rules and results of the experiment are discussed.*

Key words and phrases: *Experiment-test, national thinking, empirical, observation, analytical, method, person, concept of scientific research, philosophical category, metadological basis, mathematical statistical analysis, logical analysis, objective, subjective.*

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o'ziga xos murakkab va ma'suliyatlidir. Inson predmetida ayniqsa tajriba-sinov o'tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogika psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga oladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Bu shunday tafakkur va fikrlash jarayoni bo'lib, uning yordamida tabiiy yoki maxsus yaratilgan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan pedagogik farazlar, g'oyalar, yangiliklar o'quv jarayoniga tatbiq qilinadi. Pedagogik ilmiy farazlar, muammolarni xal qilish-ning yangicha yo'llari va vositalari izlanadi.

Pedagogik tajriba-sinov bu, umummilliy tafakkur jarayoni bo'lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar o'rtasidagi sabab va oqibatlar bilan bog'liq o'rganiladigan bir yoki bir necha ob'ekt yoxud tizim-larni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkonini beruvchi jarayondir. Tajriba-sinov ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki yangicha usullarning tatbiqiy jarayonlarini sinash, tekshi-rish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo'naltirilgan, mutlaqo yangicha muhitni olib kirishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining takomillashib borishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda o'ziga xos talablar mavjud:

Ishning ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash Tajriba-sinov uchun aniq obyekt belgilash

Tajriba-sinov o'tkazish vaqti va muddatini, sinflarni belgilash Tajriba-sinov uchun kerakli vositalar, asbobuskunalar, material va matnlar,

Anketalar va boshqa zaruriy narsalarni tayyorlash tajriba-sinovni olib borishda tadqiqotchi va tajriba-sinovni olib boruvchi o'qituvchi tadqiqot materiallari, olib borish yo'llarini, kutilayotgan natijalarni aniq belgilab olish, hamkorlikda ish yuritishi tajriba-sinovning borishi va natijalarini aniq yozib borish, tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish va tavsiya-lar berib borishlari talab etiladi. Tajriba-sinovlarni o'tkazishdan oldin shu sohaga doir eng maqbul ishni olib borish texnologiyasi, metodini belgilash ham ko'zda tutiladi. Qo'llaniladigan texnologiya va metodlar asoslangan bo'lib, u ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin.

Birinchidan, empirik (kuzatuv, taxliliy) metod hozirgacha tajriba-sinov mavzusiga oid qanday adabiyotlar, qo'shimcha manbalar, g'oyalar, tajribalar ma'lu-motini o'rganib chiqish, tajriba-sinovga oid barcha fa-razlar, modellar, bajarilishi kerak bo'lgan ishning loyihalash asosida belgilash metodidir.

Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmuni belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslash qoilanmasidir. Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko'rish; tadqiqot ilmiy-amaliy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir necha variantda har xil sharoitda tadqiqot natijasini tekshirib ko'rish; matematik statistik tahlil qilish va baholash kabi yo'nalishlardan iborat bo'adi. Ma'lumki, amaliyot ilmiy bilishning mezonidir. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarni yorituvchi yoki vaqtinchalik bo'lishi, ba'zan takror bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari ana shu imkoniyatlarni hayotda o'z ifodasini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Ilmiy farazlarni asoslashda tajriba-sinovlari muhim tarkibiy qismidir. Ilmiy farazlarga asosan tajriba-sinov ishlari tashkil etiladi, ilmiy farazlar amaliyotda sinalsagina nazariy g'oyaga aylanadi. Ilmiy farazlar tajribalarda asoslanmasa ilmiy tadqiqot yo'nalishi o'zgartiriladi, qayta tajriba o'tkaziladi.

Ilmiy tadqiqotning konsepsiyasi muammoning o'rganilish tarixiy taraqqiyoti, hayotda tipik ko'rinishlari tajribada sinab ko'riladi. Amaliy tajriba tadqiqot nazariyasini asoslaydi toidiradi. Shuning uchun tajribasinov ishlari dasturi ilmiy tadqiqotni izchil amalga oshirish tizimi, mexanizmdir. Tadqiqot nazariyasi tajriba-sinov ishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi falsafiy kategoriya tajriba-sinov ishlarining metodologik asosidir.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari ekspertiza vazifasini bajaradi. Tadqiqot argumenti tajriba-sinov ishlarining natijasiga asosan ifodalanadi. Ilmiy tadqiqotni argumentlash, g'oyaviy aksioma tajriba-sinov ishlarining har xil variantda, har xil sharoitda o'tkazilganiga bog'liq. Pedagogik tadqiqotda subyektiv tavsiyalar o'tgan asrda ta'lim-tarbiya tizimini inqirozga olib bordi. Pedagogik tadqiqotlarni argumentlash tajriba-sinov ishlari dasturining tarkibiy qismidir. Bir necha variantda, shart-sharoitda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlarida sinab ko'riladi. Uzoq muddatli tajribada har bir bosqichda bajariladigan kuzatish tajriba-sinov ishlar tartibi belgilanadi. Tajriba guruhlarini xususiyatiga ko'ra bir yoki bir necha bosqichli tajriba-sinov ishlari rejalashtiriladi.

Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik statistik tahlil argumentli konsepsiyalar, amaliy qo'llanmalar yaratish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqot yo'nalishi pedagogikaning tarkibiy qismlari, mavzuga doir tajriba-sinov ishlari dasturi yaratilishi, tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda ham ijodkorlik bo'lishi mumkin.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4804-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4829-son qarori.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /-T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
4. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat/-T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti. 2011.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4,8 j. T.: O'ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
6. www.edu.uz
7. www.uzedu.uz